



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI DIREKTORINING BUYRUG'I

20 25 y. " 14 " avgust

N^o 01-10/173

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 23-iyuldagi 462-son qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "“Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Saxovat va ko'mak” jamg'armalari mablag'lari hisobidan ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2025-yil 23-iyuldagi 462-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini o'z vaqtida va sifatli bajarish maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 23-iyuldagi "“Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Saxovat va ko'mak” jamg'armalari mablag'lari hisobidan ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 462-son qarori (keyingi o'rinlarda – qaror) ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2022-yil 7-iyundagi 312-son qarori, ushbu qarorga 1-ilova bilan tasdiqlangan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, shuningdek, tuman (shahar)lardagi “Yoshlar daftari” jamg'armalari to'g'risidagi nizom va 2-ilova bilan tasdiqlangan “Yoshlar daftari”ni yuritish orqali yoshlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tartibi to'g'risidagi nizomga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Yoshlar ishlari agentligi:

“Yoshlar balansi”ni muvofiqlashtirish bo'limi (E. Xudoyberdiyev)ga uch kun muddatda “Yoshlar daftari”ni yuritish va “Yoshlar daftari” jamg'armalaridan foydalanish tartibiga qarorga muvofiq kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni hududiy boshqarmalar va tuman (shahar) yoshlar ishlari bo'limlari mas'ul xodimlariga zoom platformasi orqali tushuntirish, shu jumladan, elektron qo'llanma tayyorlab, ularga yetkazilishini ta'minlash, kelgusida ushbu tartibni doimiy tushuntirib borish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yoshlar ishlari boshqarmalari boshliqlariga “Yoshlar daftari”ni yuritish va “Yoshlar daftari” jamg‘armalaridan foydalanishda qarorda belgilangan tartib va shartlarga rioya etilishini doimiy nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida Agentlik markaziy apparatiga ma’lumot kiritib borish vazifalari yuklansin.

4. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish Agentlik direktori o‘rinbosari F. Ablayarov zimmasiga yuklansin.

Direktor



A.Sa’dullayev